

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TUXTAMISHOV SOBIT SOBIR O‘G‘LI

**AVTOMOBIL SHINALARI YEYILISHINI ANIQLASHNING HISOB
USLUBINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.08.06 – G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Abstract contents of dissertation of doctor of philosophy (PhD)
in technical sciences**

Tuxtamishov Sobit Sobir o‘g‘li

Avtomobil shinalari yeyilishini aniqlashning hisob uslubini

takomillashtirish..... 3

Тухтамишов Собит Собир угли

Совершенствование расчетной методики определения износа

автомобильных шин..... 23

Tukhtamishov Sobit Sobir ugli

Improvement of the computational method for determining automobile

tire wear..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 52

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TUXTAMISHOV SOBIT SOBIR O‘G‘LI

**AVTOMOBIL SHINALARI YEYILISHINI ANIQLASHNING HISOB
USLUBINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.08.06 – G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2 PhD/T2654 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) ba «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muxitdinov Akmal Anvarovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Alimuxamedov Shavkat Pirmuxamedovich
texnika fanlari doktori, professor

Kalauov Saydulla Aymaxanovich
texnika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.15/31.08.2022.T.73.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «__» _____ soat_____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100208, Toshkent sh, Temirchi ko'chasi, 53-uy, Tel.: (99871) 299-00-01, faks: (99871) 293-57-54 e-mail: rectorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ ____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lchilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01, faks: (99871) 293-57-54 e-mail: rectorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «__»_____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «__»_____dagi_____ - raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Riskulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

K.Z.Ziyaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, (PhD), dotsent

S.K.Ro'zimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi o'rinbosari, DSc., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqtisodiyotni izchil rivojlantirish, transport tizimlarining barqaror va xavfsiz ishlashini ta'minlash, energiya resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik talablarga mos texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va zamonaviy boshqaruv-innovatsion yechimlarni qo'llash imkoniyatlarini oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. Hozirda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda energiya tejamkor tizimlarni rivojlantirish, resurs sarfini kamaytiruvchi innovatsion texnologiyalarni qo'llash, ekologik xavfsizlik darajasini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali samaradorlik ko'rsatgichlarini oshirishga qaratilgan masalalar yetakchi o'rinni egallagan. Bu borada, jumladan, transport vositalari konstruksiyasida energiya yo'qotishlarini kamaytirish, ekspluatatsion yuklanishlar ostida materiallarning deformatsion xususiyatlarini yaxshilash, shinalar ish jarayonida yuzaga keladigan mexanik omillar tasirini minimallashtirishga va ularni samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda transport vositalarida resurs tejamkorligini oshirish, shinalarning konstruksiyasini takomillashtirish orqali ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash, energiya sarfini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda, jumladan, shina materiallarining fizik-mexanik xossalarini baholash, kontakt yuzalaridagi kuchlanish taqsimotining dinamik sharoitlarda o'zgarishini modellashtirish, issiqlik ta'sirida yuzaga keladigan elastik-deformatsion jarayonlarni tahlil qilish, yuklamalar intensivligining konstruktiv elementlarga ta'sirini matematik tavsiflash va energiya tejamkor texnik yechimlarni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, avtomobil shinalarining real ekspluatatsiya sharoitida yeyilish jarayonini aniqlashning hisob uslubini takomillashtirish orqali ularning xizmat muddatini bashorat qilish va ekspluatatsion samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish kabi masalalar dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizdagi avtotransport vositalarining texnik holatini yaxshilash, energiya iste'molini kamaytirishga imkon beruvchi innovatsion texnologiyalarni yaratish va ularning amaliyotga joriy etilishini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli rejali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buni, transport tizimining energiya samaradorligi, ekologik xavfsizligi va shinalar sifat ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlarni rag'batlantiruvchi qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligi yaqqol ko'rsatib turibdi. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "...Sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ish unumdorligini va ishlab chiqarish jarayonlarida mahalliy lashtirish darajasini oshirish"¹ bo'yicha vazifalari alohida belgilab berilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Mazkur vazifalarni bajarishda texnik sohalarda transport vositalarining, xususan avtomobil transportining o'rnini hisobga olingan holda, ularning ekspluatatsiya jarayonida yuzaga keladigan energiya yo'qotishlarini kamaytirish va ekspluatatsion xarajatlarini optimallashtirish, detallar va ishchi elementlarning real sharoitdagi resursini aniqlash uslublarini ishlab chiqish bilan bog'liq tadqiqotlar olib borish dolzarb vazifadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlar to'g'risida"² gi PQ-4422-sonli, 2022-yil 24-yanvardagi "Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"³ gi PQ-90-sonli Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-martdagi «Atmosfera havosiga transport vositalarining salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»⁴ gi VMQ-166 – sonli Qarori ijrosini ta'minlashga hamda mazkur faoliyat sohasida qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining III. «Energetika, energiya - resurstejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy olimlar tomonidan avtomobil shinalarining ekspluatatsiya jarayonida yuzaga keluvchi eyilish jarayonlarini tadqiq etish masalalari o'rganilgan, jumladan: J.F.Archard, S.K.Rhee, N.J.Persson, F.Liu, Z.Gao, G.Napolitano Dell'Annunziata, H.Nakanishi, F.Farroni, C.Fortunato, M.Ciaravola, A.Scaraggi, Z.El-Sayegh, M.El-Gindy, I.Johansson, F.Öijer, R.G.Longoria, H.Kong, L.Wang, J.Kwak, T.Lee, C.Ozerem, D.A.Morrey, J.Pacejka, J.Y.Wong, G.Genta, L.Morello, R.N.Jazar, X.Ma, Y.You, H.Suh, S.Taheri, M.Salehi, S.Siramdasu, K.Li, R.L.Wheeler va boshqalar shina-yo'l kontakti, elastik-deformatsion jarayonlar, yuklanish, tezlik va haroratning shina resursiga ta'siri, shuningdek shinalarning eyilish tezligini matematik, eksperimental va raqamli modellashirish orqali baholash usullari ustida tadqiqotlar olib borishgan.

MDH davlatlaridan N.S.Zakharov, A.I.Golovin, E.V.Safronov, S.A.Chernous, P.N.Kozhevnikov, K.V.Gerasimov, D.I.Romanov, A.N.Cheboksarov, S.P.Voronov, V.F.Evstratov va boshqalar shinalarning deformatsion xususiyatlari, g'ildirakning yo'l bilan tutashish zonasidagi kontakt bosimining shakllanishi, tormozlanish jarayonida harorat va tezlikning eyilishga ta'siri hamda shina resursiga ta'sir qiluvchi ekspluatatsion omillar bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Mamlakatimiz olimlaridan O.V.Lebedev, A.A.Shermuxamedov, V.A.Topalidi, A.M.Baboyev, U.B.Yusupov va boshqalar tomonidan ekspluatatsiya

² <https://lex.uz/docs/-4486125>.

³ <https://lex.uz/docs/-5362032>.

⁴ <https://lex.uz/pdfs/6858809>.

sharoitlarini hisobga olgan holda shina xizmat muddatini baholash usullarini takomillashtirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Shu bilan birga, yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy ishlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, avtomobil shinalarining ekspluatatsiya sharoitida yeyilish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar kompleks baholanishi yetarli darajada ochib berilmaganligi, shuningdek, real harakat sharoitlari va yuklanishlarni bir vaqtda hisobga olingan holda shina yurish masofasini hisoblash usullari yoritilmaganligini ko'rsatdi.

Dissertatsiya tadqiqotining oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universiteti ilmiy-tadqiqot ishlar rejasining № 28/2023-TR-sonli «Navoiy KMK AJ obyektlarida avtomobil shinalarini va katta o'lchamli shinalarni, hamda yo'l qurilish mashinalari va mexanizmlarining ekspluatatsion yurish masofalarini meyorlash» (2022-2023) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi avtomobil shinalari yeyilishini aniqlashning hisob uslubini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

shina yeyilishi va xizmat muddatini aniqlash bo'yicha mavjud hisoblash, sinov, ishlab chiqarish va ekspluatatsiya sinovlari uslublarini tahlil qilish;

sinov tajribalari asosida haroratning shina materiali qattiqligiga ta'siri va shinning yeyilish koeffitsientini aniqlash;

ekspluatatsion yuklanish va burovchi moment ta'sirini hisobga olgan holda, shina kontakt yuzasining geometriyasi va bosim taqsimotini aniqlash;

shina kontakt yuzasidagi bosimning notekis taqsimlanishini hisobga olgan holda, protektor yeyilish hajmini aniqlashning matematik modeli takomillashtirish;

shinalarning yeyilishiga og'irlik, bosim, harorat va burovchi moment ta'sirini inobatga olgan holda yurish masofasini aniqlash hisob uslubini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida asfalt qoplamali yo'l sharoitida ekspluatatsiya qilinayotgan yengil avtomobil shinalari olingan.

Tadqiqotning predmetini avtomobil shinalarini xaqiqiy yurish masofasi qiymati tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy tadqiqot usullari, avtomobillarning ekspluatatsion xususiyatlari nazariyalari, kuzatuv, matematik statistika va modellashtirish, tizimli va nazariy tahlil, regression tahlil, interpolyatsiya usuli, sonli integrallash, texnik tizimlarning tahlili va sintezi, raqamli hisoblash usullari, laboratoriya va stend sinovlari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi jihatlardan iborat:

ekspluatatsion haroratning shina protektori materiali qattiqligiga ta'sirini aks ettiruvchi matematik bog'lanish orqali protektor yeyilish koeffitsienti eksperimental ma'lumotlar asosida ko'p omilli regression tahlil yordamida aniqlangan;

sonli integrallash usullari asosida ekspluatatsion yuklanish va burovchi moment ta'sirini hisobga oluvchi shina kontakt yuzasining geometriyasi va bosim taqsimotini aniqlash algoritmi ishlab chiqilgan;

Jazerning elastik-deformatsion kontakt nazariyasi va bosim taqsimoti tenglamalari asosida shina kontakt yuzasidagi bosimning notekis taqsimlanishini hisobga oluvchi protektor yeyilish hajmini aniqlashning matematik modeli takomillashtirilgan;

og'irlik, bosim, harorat va burovchi momentning kompleks ta'sirini hisobga oluvchi shina yeyilish tezligi modellari asosida shinalarning haqiqiy yurish masofasini aniqlashning hisob uslubi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

haroratning shina materiali qattiqligiga ta'siri va shina protektorining yeyilish koefitsientini aniqlash bo'yicha uslub takomillashtirildi;

shinaning ichki bosimi, unga tushadigan og'irlik, burovchi moment va bikirlikni hisobga olib, kontakt yuzaning sirpanish zonasini aniqlash usuli takomillashtirildi;

kontakt yuzasida bosimning notekis taqsimotini hisobiga sirpanish zonasidagi yeyilish hajmini hisoblash dasturi ishlab chiqildi;

yeyilishga ta'sir etuvchi omillarni kompleks hisobga oluvchi yurish masofasini aniqlash, texnik xizmat ko'rsatish davriyligini belgilandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy usullar va samarali uslub hamda o'lchov vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, shina kontakt yuzasidagi bosim taqsimoti, deformatsion jarayonlar hamda ekspluatatsion yuklanish parametrlarining nazariy jihatdan asoslanganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro mosligi, ishlab chiqilgan takomillashtirilgan hisob uslubi sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati avtomobil shinalarining haqiqiy yurish masofasini hisoblash bo'yicha mavjud yondashuvlarni takomillashtirish imkonini beruvchi, shinalarning yeyilish jarayonida namoyon bo'ladigan asosiy omillarni hisobga oladigan va amaliy natijalar bilan tasdiqlangan hisoblash uslubining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Olingan tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati aniqlangan yeyilish koefitsienti, protektor qattiqligining haroratga bog'liqligi, kontakt zona parametrlarining o'zgarish qonuniyatlari va takomillashtirilgan yurish masofasi aniqlash uslubining qo'llanishi shinalarning ekspluatatsion ishonchliligini baholash, resursni rejalashtirish va foydalanish jarayonidagi samaradorlikni oshirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Avtomobil shinalari yeyilishini aniqlashning hisob uslubini takomillashtirish ilmiy tadqiqoti bo'yicha olingan natijalar asosida;

shina protektorining yeyilish koefitsienti Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJ tarkibidagi 3-avtokorxonasida tatbiq etilgan (Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJning 29.10.2025 yildagi 02-05-01/01/309-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, shinalarining almashtirish davri 2500 km ga uzaytirib, ekspluatatsiya xarajatlarini 4 % ga kamaytirish imkonini bergan;

shina kontakt yuzasining geometriyasi va bosim taqsimotini aniqlash algoritmi Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJ tarkibidagi 3-avtokorxonasida tatbiq etilgan (Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJning 29.10.2025 yildagi 02-05-01/01/309-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, shina kontakt yuzasidagi bosimni aniqlashdagi hisob xatoligini 12 % dan 5 % gacha kamaytirgan holda kontakt geometriyasini baholash aniqligini 2.3 baravar oshirishga erishilgan;

shina kontakt yuzasidagi bosimning notekis taqsimlanishini hisobga oluvchi shina protektori yeyilish hajmini aniqlashning matematik modeli Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJ tarkibidagi 3-avtokorxonasida joriy etilgan (Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJning 29.10.2025 yildagi 02-05-01/01/309-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, protektor yeyilish hajmini prognozlash xatosini 15-17 % dan 6 % gacha kamaytirishga erishilgan;

avtomobil shinalarning haqiqiy yurish masofasini aniqlash hisob uslubi Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJ tarkibidagi 3-avtokorxonasida joriy etilgan (Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJning 29.10.2025 yildagi 02-05-01/01/309-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, shinalarning haqiqiy yurish masofasini prognozlashdagi hisob-kitob xatoligi avvalgi usullardagi 17 % dan 4,8 % gacha kamaydi va shina resursini baholash aniqligi 95 % ga oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. 4 ta dasturiy ishlanmaga mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 91 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida avtomobil shinasining ekspluatatsiya jarayonida yeyilishini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan. Ishning asosiy maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekt va predmeti, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Ishning ilmiy yangiligi va shina kontakt yuzasidagi yuklanayotgan kuchlar taqsimoti va yeyilish intensivligini baholash bo'yicha taklif etilgan hisoblash usullarining asosiy natijalari, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan. Shuningdek, dissertatsiya ishi natijalarining amaliyotga tadbiqu, mavzu bo'yicha nashr etilgan ishlar va uning tarkibiy tuzilishi bo'yicha umumiy ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiya ishining **“Avtomobil shinalarining yeyilishi va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili”** nomli **birinchi bobida** avtomobil shinalari va ularning konstruksiyalarining tahlili, yeyilishning fizik-mexanik jarayonlari, yeyilishga

ta'sir etuvchi omillar hamda ularga bog'liq holda yeyilish darajasi, shuningdek, shinalarning yeyilishini hisoblash bo'yicha bajarilgan ilmiy ishlar tahlili asosida shina yurish masofasini aniqlash muammosining hozirgi holati va mavjud ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Avtomobil shinalari protektor, karkas, breker, yon devor va bort qismlaridan iborat murakkab konstruksiyaga ega. Har bir element yukni qabul qilish, yo'l bilan ilashish va kontakt yuzaning barqarorligini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Diagonal va radial shinalar o'rtasidagi asosiy farq karkas tolalarining joylashishi va qatlamlar soni bilan belgilanadi. Deformatsiyalanish jarayonida ichki ishqalanish hamda gisterezis natijasida energiya yo'qotilishi sodir bo'ladi, bu esa g'ildirash qarshiligini va haroratni oshiradi. Radial shinalarda deformatsiya darajasi past bo'lib, bu ularning xizmat muddatini uzaytiradi va chidamliligini oshiradi.

Shinalarning yeyilishi fizik va mexanik jarayonlar ta'sirida sodir bo'ladi. Protektor bilan yo'l orasidagi ishqalanish natijasida mikrosirpanishlar paydo bo'lib, material yuzasidan zarrachalar ajraladi va issiqlik hosil bo'ladi. Bosimning notekis taqsimlanishi markaziy, yon yoki nosimmetrik yeyilish turlariga olib keladi. Shina bosimi, osma tizimi va g'ildirak geometriyasining me'yorda bo'lishi yeyilishni tenglashtiradi. Shu bois, yeyilish jarayonini baholashda ishqalanish va deformatsiya omillarini birgalikda tahlil qilish zarur.

Avtomobil shinalarining yeyilish darajasi konstruktiv, ekspluatatsion, dinamik va tashqi muhit omillarining o'zaro ta'siri bilan belgilanadi. Konstruktiv omillarga protektor shakli, kauchuk aralashmasi va karkas qatlamlari kiradi. Statistik tahlillar protektor shaklining optimal tanlanmasligi yeyilishning 20–35 %, material tarkibi va qattiqligi 20–30 %, karkas hamda breker qatlamlarining joylashishi esa 15–25 % qismini belgilashini ko'rsatadi. Bu omillar shina qattiqligi, elastiklik darajasi va kontakt yuzasidagi bosim taqsimlanishiga bevosita ta'sir etadi.


Ekspluatatsion va dinamik omillar yeyilish tezligini sezilarli oshiradi. Yuk ortishi, tormozlanish va yuqori tezlik bilan harakatlanish yeyilish darajasini 20–30 % gacha ko'paytiradi. Shina ichki bosimining me'yordan past yoki yuqori bo'lishi mos ravishda chetki va markaziy zonalarda yeyilishni tezlashtiradi (15–20 %). Yo'l holati, harorat va tashqi zarrachalar esa jarayonga 25–30 % qo'shimcha ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, yuklanish, bosim va tezlikni me'yorda ushlash, ekspluatatsiya sharoitlarini ilmiy asosda boshqarish shina xizmat muddatini uzaytirishning muhim omilidir.

Avtomobil shinasining kontakt yuzasidagi bosim taqsimoti, ishqalanish energiyasi va materialning gisterezis xususiyatlarini hisobga olgan holda shina yeyilishini modellashtirish va baholash bilan xorijiy tadqiqotchilardan J.A. Williams, D. abor, K.L.Johnson, B.Archard, S.K.Rhee, N.Jazar, J.Svendenius, H.Pacejka, C.Persson, A.Gent va boshqalar shug'ullanganlar. Ularning ishlarida yeyilish jarayonini yuklanish, siljish masofasi, material qattiqligi va friksion energiya bilan bog'lovchi nazariy modellar taklif etilgan.

Avtomobil shinasining kontakt yuzasida bosimning bir teks taqsimlanmasligi, shina geometriyasi va material qatlamlarining deformatsiya holatidagi

o'zgarishlarini o'rganish bo'yicha mahalliy olimlardan O.V.Lebedev, A.A.Shermuxamedov, V.A.Topalidi, A.M.Baboyev, U.B.Yusupov va boshqalarning tadqiqot ishlari mavjud. Ushbu tadqiqotlarda shina konstruksiyasi va ekspluatatsiya omillarini hisobga olgan holda yeyilishni baholash usullari yoritilgan bo'lsa-da, yeyilishni aniqlashning hisoblash usulini takomillashtirish shina resursini yuqori aniqlikda bashorat qilish imkoniyatini oshiradi.


Dissertatsiyaning **“Shinalarning yeyilishini aniqlashning hisob uslubi”** nomli **ikkinchi bobida** shina bilan yo'l qoplamasi o'rtasidagi o'zaro ta'sirni hisobga olgan holda yeyilish jarayonini aniqlashga qaratilgan matematik model ishlab chiqilgan. Bobda shina geometrik parametrlari, normal og'irlik kuchi, shina ichki havo bosimi va shinaning bikrlilik va qattiqlik xususiyatlariga asoslangan holda kontakt yuzasidagi bosim taqsimoti va deformatsiyaning o'zgarishi bosqichma-bosqich hisoblash usuli orqali aniqlangan. Shu asosda shina protektorining yeyilish sur'ati va umumiy yurish masofasini baholash imkonini beradigan hisoblash algoritmi taklif etilgan.



1-rasm. Shina yeyilishini aniqlashning MatLab/Simulink dasturida hisoblash algoritmi

Modelda shina yeyilishini aniqlashning hisoblash algoritmi blokli tarzda shakllantirilgan. Avvalo, shina bilan yo'l o'rtasidagi kontakt yuza geometrik parametrlari, normal og'irlik kuchi va shinaning ichki havo bosimi ta'sirida aniqlanadi. Keyingi bloklarda kontakt yuzasidagi bosimning taqsimlanishi, kontakt yuzadagi ilashish va sirpanish zonalari hamda ulardagi kuchlar nisbati hisoblanadi. Sirpanish zonasi uchun shina materialining mexanik xossalari va yo'l qoplamasi parametrlari inobatga olingan holda yeyilish hajmi aniqlanadi. Oxirgi bosqichda esa protektorning qoldiq balandligi va shina yurish masofasi baholanib, yeyilishni prognoz qilish imkoni yaratilgan.

Stasionar holatda shinaning kontakt yuzasidagi normal bosim shinaning tuzilishi va yuklanish sharoitlariga bog'liq bo'lib, odatda markazda yuqori, chetlarda past bo'ladi. Yuk va deformatsiya ta'sirida bosim markazi oldinga yoki orqaga siljishi mumkin. Shu sababli, bosim taqsimotini modellashtrishda oddiy parabolik shakldan ko'ra murakkabroq funksiyalardan foydalanish talab etiladi.



2-rasm. Shina kontakt yuzasining geometrik modeli

Kontakt yuzada bosim taqsimoti modeli. Amalda bosim markazda yuqori, chetlarga esa kamayadi. Kontakt yuza ellipissimon shaklga yaqin deb qabul qilinsa, bosim taqsimotini oddiy matematik funksiya orqali yaqinlashtirish mumkin. Bu funksiya bosimning markazda maksimal qiymatga ega bo'lishini va chetlarga borgan sari kamayib nolga tenglashishini ta'minlaydi. Shu holatni ifodalash uchun quyidagi formula qo'llaniladi

$$q_z(x, y) = q_z \left(1 - \frac{x^{2n}}{a^{2n}} - \frac{y^{2n}}{b^{2n}} \right). \quad (1)$$


Bu yerda: $q_z(x, y)$ — normal bosim taqsimoti (Pa), q_z — normal bosim (Pa), a — kontakt uzunligining yarmi (ya'ni $x \in [-a, a]$), b — kontakt enining yarmi (ya'ni $x \in [-b, b]$). Radial shinalar uchun $n = 3$ qabul qilinadi.

Shinaga burovchi moment M_k uzatilganda, kontakt yuzasidagi bosim taqsimoti simmetrik holda bo'lmaydi. Shu asimmetriyani hisobga olish uchun klassik elliptik taqsimotga x yo'nalishida qo'shimcha had qo'shiladi:


$$q_z(x, y) = q_z \left(1 - \frac{x^{2n}}{a^{2n}} - \frac{y^{2n}}{b^{2n}} + d \cdot \frac{x}{a} \right). \quad (2)$$

d — asimmetriya koeffitsiyenti, kontakt zonadagi bosim markazining siljishini ifodalaydi.

Shinaga burovchi moment uzatilganda, kontakt yuzasidagi bosim taqsimoti simmetrik holda emas balki, bosim markazi oldinga siljiydi va natijada kontakt izining old qismida bosim yuqori, orqa qismida esa pasaygan qiymatga ega bo'ladi. Bu siljish burovchi momentning ta'siri bilan yuzaga keladi va aynan shu holat shinada g'ildirashga qarshilik kuchining shakllanishiga olib keladi.



3-rasm. Burovchi moment ta'sirida shina kontakt yuzasida bosim taqsimoti



4-rasm. Turli momentlarda kontakt yuzasi bo'ylama normal kuch - F_z grafigi

Agar $d = 0$ bo'lsa, kuch taqsimlanishi simmetrik bo'lib, kontakt markazida maksimal bosim hosil bo'ladi. Ammo agar $d > 0$ bo'lsa, bosimning markazi kontakt uzunligi bo'yicha oldinga (ijobiy) tomonga siljiydi — bu odatda tortish holatiga mos keladi. Aksincha, $d < 0$ bo'lsa, bosim orqa (manfiy) tomonga siljiydi — bu esa tormozlanish holatini ifodalaydi.

Bu modelning muhim afzalliklaridan biri shundaki, d barcha qiymatida, normallashtirilgan shakl funksiyasi ishlatilishi natijasida umumiy bosim integrali doimo vertikal og'irlik kuchiga teng bo'ladi.

$$F_z = \int_{-a}^a \int_{-b}^b q_z(x, y) dA. \quad (3)$$

Asimmetrik bosim modeli nafaqat real holatlarga aniqroq natijalar beradi, balki moment va sirpanishning aniq tahlilini amalga oshirishga ham imkon yaratadi. Avtomobil shinasiga burovchi moment ta'sir etganda, bosim taqsimotidagi asimmetriya natijasida g'ildirakka ta'sir etuvchi qo'shimcha moment hosil bo'ladi. Masalan, bosim markazi siljishi natijasida hosil bo'lgan moment quyidagi tarzda ifodalanadi:

$$M = \int_{-a}^a \int_{-b}^b x \cdot q_z(x, y) dx dy. \quad (4)$$

Bu yerda, $q_z(x, y)$ esa bosim taqsimotini anglatadi. Shu tariqa, burovchi moment bosim kuchlarining geometrik markazdan og'ishi orqali belgilanadi.

$$M = \frac{F_z}{4ab} \cdot \int_{-a}^a \int_{-b}^b x \cdot \left(1 - \frac{x^{2n}}{a^{2n}} - \frac{y^{2n}}{b^{2n}} + d \cdot \frac{x}{a} \right) dx dy. \quad (5)$$

Shundan kelib chiqib, d ni teskari tarzda hisoblash mumkin:

$$M = \frac{F_z}{4ab} \cdot \frac{d}{a} \cdot \frac{4}{3} a^3 \cdot b = \frac{F_z \cdot d \cdot a}{3} \rightarrow d = \frac{3 \cdot M}{F_z \cdot a}. \quad (6)$$

G'ildirak aylanganda, shina va yo'l orasida tangensial kuchlar hosil qiladi, va ular kontakt zonada aylanish momenti hosil qiladi. Bu moment g'ildirak aylanayotganida, shina materialining deformatsiyasi hisobiga yo'lga "berayotgan" reaksiya momentidir.

Avtomobil shinalari yeyilish jarayoni asosan kontakt yuzasida kechadi. Shina va yo'l orasidagi o'zaro ta'sirda ikki holat kuzatiladi: ilashish va sirpanish. Ilashish zonasida shina yo'l bilan birga harakatlanadi va nisbiy siljish kuzatilmaydi. Sirpanish zonasida esa shina yuzasi yo'lga nisbatan sirpanadi va yeyilish aynan shu hududda sodir bo'ladi.

Ilashish va sirpanish zonalari orasidagi chegara shunday nuqtada hosil bo'ladiki, bu yerda shina materialining elastik tortilish kuchi kontakt yuzasidagi bosim kuchiga tenglashadi. Shu nuqtadan boshlab shina yuzasida nisbiy siljish paydo bo'ladi va sirpanish ortgan sari protektorning yeyilishi tezlashadi. Sirpanish va ilashish chegarasini aniqlash uchun kontakt zonasi bo'ylab tangensial va normal kuchlarning muvozanati baholanadi. Protektor bloklari deformatsiyalanganda ularda tangensial yo'nalishda elastik kuch hosil bo'ladi. Bu kuch ma'lum qiymatga yetganda, u shu nuqtadagi maksimal ilashish kuchiga tenglashadi. Shu holatdan

boshlab yopishish tugaydi va sirpanish boshlanadi. Demak, kontakt yuzasida sirpanish boshlanadigan nuqta x_s shunday shart bilan aniqlanadi:


$$c_p \cdot \sigma_x \cdot (a + x_s) = \varphi \cdot F_z(x_s). \quad (7)$$

Formulaning chap qismi $c_p \cdot \sigma_x \cdot (a + x_s)$ protektor elementlarida yuzaga keladigan elastik deformatsiya kuchini ifodalaydi. Bu kuch shina kontakt yuzasiga ta'sir etganda, ilashish holati ma'lum masofagacha saqlanadi. Shu x_s nuqtadan keyin, ya'ni chap va o'ng tomon qiymatlari tenglashganda, elastik kuch ilashish kuchi $\varphi \cdot q_z(x_s)$ bilan muvozanatga keladi va natijada ilashish tugaydi, sirpanish jarayoni boshlanadi.

Kontakt yuzasida taqsimlangan normal bosim orqali shinaning yo'lga ta'sir qiluvchi umumiy normal kuchi aniqlanadi. Bu kuch kontakt zonasi bo'yicha ikki o'lchamli integrallash orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$F_z = \int_{-a}^a \int_{-b}^b q_z \left(1 - \frac{x^{2n}}{a^{2n}} - \frac{y^{2n}}{b^{2n}} + d \cdot \frac{x}{a} \right) dx dy. \quad (8)$$

Shuningdek, kontakt zonadagi har bir nuqtada bosim orqali lokal kuchlar ifodalanadi, ularning integral yig'indisi esa shinaning umumiy kuch ta'sirini hosil qiladi.




5-rasm. Shina kontakt yuzasidagi normal kuch taqsimotining grafigi

Sirpanish zonasida (ya'ni $x \in [-a, x_s]$) kontakt yuzasi bo'yicha hosil bo'ladigan kuch zichligi shina va yo'l o'rtasidagi nisbiy harakat natijasida yeyilishni ifodalaydi. Ushbu kuch zichligi bosim taqsimotiga va materiallar orasidagi ishqalanish xususiyatlariga bevosita bog'liq bo'lib, quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\sum F_s = \frac{F_z}{4ab} \int_{-a}^{-x_s} \int_{-b}^b \left(1 - \frac{x_s^6}{a^6} - \frac{y^6}{ab^6} + d \cdot \frac{x_s}{a} \right) dx dy. \quad (9)$$

Quyidagi 3D grafikda kontakt yuzasidagi tangensial kuchlar taqsimoti ko'rsatilgan. Qora chiziq x_s nuqtadagi sirpanish zonasining chegarasini bildiradi. Bu chegara kontakt elastikasi va ishqalanish darajasi asosida aniqlangan.



6-rasm. Shina kontakt yuzasidagi kuch taqsimoti: ilashish va sirpanish zonalari

Shina va yo‘l orasidagi kontakt yuzasida yuzaga keladigan elastik va ishqalanish ta’sirlari natijasida materialning yeyilishi kuzatiladi. Ushbu fizik hodisani baholashda keng qo‘llaniladigan Archard modeli material yuzasining sirpanish davomida bosim ostida deformatsiyalanishi natijasida yo‘qotilgan hajmni tavsiflaydi. Archard modelining umumiy ko‘rinishi ifodasini quyidagicha moslashtiramiz:

$$W = k \cdot \frac{F_z \cdot s}{4 \cdot A_s \cdot H} \cdot \int_{-a}^{-x_s} \int_{-b}^b \left(1 - \frac{x_s^6}{a^6} - \frac{y^6}{b^6} + d \cdot \frac{x_s}{a} \right) dx dy. \quad (10)$$

Bu ifoda kontakt yuzasida bosimning ikki o‘lchamli taqsimotini hisobga olingan holda, shinaning sirpanayotgan soxasi bo‘yicha modda yo‘qotilishini ifodalaydi.

Shina kontakt yuzasidagi yuklanishning o‘zgarishi natijasida sirpanish hududining uzunligi x_s ham o‘zgarib, shina materialining yeyilish tezligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Bu bandda sirpanish masofasi x_s ning dinamik omillarga bog‘liq empirik qonuniyatlari hisoblab chiqilgan va 2.2-bandda nazariy jihatdan asoslangan modelning amaldagi qo‘llanish natijalari taqdim etilgan.

Keltirilgan nazariy asoslardan foydalanib, kontakt yuzasidagi ilashish–elastiklik tengsizligiga asoslangan empirik hisoblash algoritmi tuzildi. Bu algoritmda har bir asosiy parametr (massa, bosim, burovchi moment) uchun sirpanish masofasi x_s quyidagi umumiy ko‘rinishda baholandi:

$$x_s = f(F_z, P_i, M). \quad (11)$$

bu yerda:

F_z — shinaga ta’sir etuvchi umumiy vertikal kuch;

P_i — shina ichki havo bosimi;

M — g‘ildirakdagi burovchi moment.

Hisoblashda tajribaviy yo‘l bilan kalibrovka qilingan koeffitsiyentlar qo‘llanilib, natijalar amaldagi kuzatuvlar bilan solishtirildi.

Shinaga tushayotgan massa ortganda, kontakt yuzasidagi deformatsiya va ishqalanish kuchlari proporsional ravishda oshadi. Bu holatda ilashishdan sirpanishga o‘tish nuqtasi ilgarilaydi, natijada x_s uzunligi ortib boradi.

Olib borilgan hisob natijalari asosida quyidagi empirik bog'lanish aniqlandi:

$$x_{sm} = k_m m + C_m. \quad (12)$$


Bu bog'lanishdan ko'rinib turibdiki, massa 100 kg ga oshganda sirpanish masofasi o'rtacha 9 mm ga uzayadi. Bu fizik jihatdan kontaktdagi bosimning ko'payishi va deformatsiya energiyasining ortishi bilan izohlanadi.

Shina ichki bosimi ortishi natijasida shinning deformatsiya qobiliyati kamayadi, natijada kontakt yuzasi qisqaradi va shina markazidagi bosim zichligi ortadi. Bu holat sirpanish zonasini qisqartiradi va x_s ni pasaytiradi.


Hisob natijalari asosida quyidagi empirik tenglama aniqlandi:

$$x_{sP} = k_P P_i + C_P. \quad (13)$$

Bu tenglamadan kelib chiqadiki, ichki bosim har 10 kPa ga oshganda sirpanish masofasi taxminan 4 mm ga kamayadi. Bu natija shina bosimining oshishi natijasida bosim taqsimotining markazlashuvi va deformatsiya hududining qisqarishi bilan asoslanadi.



7-rasm. Massaning sirpanish masofasiga ta'siri




8-rasm. Ichki bosimning sirpanish masofasiga ta'siri

G'ildirakdagi burovchi momentning ortishi shina kontakt yuzasidagi tangensial kuchlarni oshiradi. Bu holat shina va yo'l orasidagi ilashish-sirpanish muvozanatini buzib, sirpanish hududini kengaytiradi. Natijada x_s ortib, shina yuzasida mexanik yeyilish tezlasha boshlaydi.

Olingan hisob natijalari bo'yicha sirpanish masofasi va burovchi moment orasidagi bog'lanish quyidagicha:

$$x_{sM} = k_M M + C_M. \quad (14)$$

Bu bog'lanish burovchi momentning shina kontakt geometriyasiga ta'sirini aniq tavsiflab beradi va yuklanish ortishi natijasida ilashish sohasi qisqarib, sirpanish hududi kengayadi.



9-rasm. Burovchi momentning sirpanish masofasiga ta'siri

Yakka omilli empirik regressiyalar asosida olingan natijalarni umumlashtirish va shinadagi sirpanish zonasining umumiy uzunligini aniqlash uchun quyidagi empirik chiziqli regressiya usuli taklif etildi:

$$x_s = \frac{R_m^2 \cdot x_{sm} + R_P^2 \cdot x_{sP} + R_M^2 \cdot x_{sM}}{R_m^2 + R_P^2 + R_M^2}. \quad (15)$$

Bu ifoda empirik chiziqli regressiya usuli bo'lib, har bir omilning shina sirpanish zonasiga ta'sir kuchini uning determinatsiya darajasi (R^2) orqali hisobga oladi. Shu bilan, mazkur tenglama shina kontakt yuzasidagi sirpanish zonasi uzunligini dinamik yuklanishlar ta'sirida baholashning ishonchli va statistik jihatdan asoslangan usulini ta'minlaydi.

Shina kontakt yuzasidagi deformatsiya va ishqalanish natijasida yuzaga kelgan yeyilish jarayoni takomillashgan model asosida tahlil qilindi. Bu model shina materialining fizik xususiyatlari va avtomobilning dinamik yuklanish holatini hisobga oladi. Natijada shina yuzasidagi mikrosirpanish hududida material yo'qotilishi va butun protektor qatlamining yeyilish jadalligi aniqlanadi.

Bu holda sirpanish hududining umumiy yuzasi:

$$A_{sir} = \int_{-a}^{x_s} \int_{-b}^b dx dy = x_s 2b. \quad (16)$$

Bu formula shina kontakt yuzasining qaysi qismida mikrosirpanish sodir bo'layotganini aniqlaydi. Sirpanish hududi katta bo'lsa, shinadagi yeyilish tezroq kechadi.

Shina yuzasining yeyilishini to'liq baholash uchun sirpanish hududidagi o'rtacha yeyilish chuqurligi Δh quyidagi bog'lanish orqali aniqlanadi:

$$\Delta h = \frac{W}{A_{sir}}. \quad (17)$$

bu yerda A_{sir} – sirpanish zonasining umumiy yuzasi (m^2).

Shina aylanish jarayonida sirpanish zonasida materialning ma'lum qismi ajralib chiqadi va bu o'rtacha yeyilish chuqurligi bilan ifodalanadi. Yeyilgan hajm W sirpanish yuzasi bo'yicha bir xil taqsimlangan deb qabul qilinsa, protektorning o'rtacha yeyilish chuqurligi Δh quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$\Delta h = \frac{k \cdot F_s \cdot x_s}{H \cdot A_{sir}}. \quad (18)$$

Shu bilan birga, avtomobil og'irligi yoki burovchi momenti ortsa, F_s qiymati ham o'sadi, natijada Δh kattalashib, shina tezroq yeyiladi.

Protektorning boshlang'ich balandligi ma'lum h_0 , shina har bir aylanishda Δh qadar yeyiladi. Demak, shina butun foydali qatlamni tugatish uchun kerak bo'ladigan aylanishlar soni N_{ay} quyidagi formula bilan aniqlanadi.


$$N_{ay} = \frac{h_0}{\Delta h} = \frac{h_0 H A_{sir}}{k F_s x_s}. \quad (19)$$

Shinaning aylana uzunligi l (m) bo'lsa, unda shina protektori tugaguncha bosib o'tadigan umumiy yo'l uzunligi quyidagi bog'lanish bilan aniqlanadi:


$$L = N_{ay} \cdot l = \frac{h_0 H A_{sir}}{k F_s x_s} \cdot l. \quad (20)$$

Shinaning yurish masofasi L avtomobilning dinamik parametrlari va shina fizik xususiyatlariga bog'liq holda sezilarli o'zgarishni namoyon etadi. Taklif etilgan model asosida yurish masofasi yetakchi va yetaklanuvchi g'ildiraklar holati, avtomobil massasi, ichki bosim darajasi va rezina qattiqligi bo'yicha tahlil qilindi.

Grafik natijalar shuni ko'rsatadiki, yetakchi g'ildirak shinalarining protektori to'liq yeyilishi 35428 km, yetaklanuvchi g'ildirak shinalarida esa 60783 km masofadan so'ng sodir bo'ladi. Ya'ni, yeyilish sur'ati yetakchi g'ildiraklarda 40–45 % yuqoridir. Sababi, yetakchi g'ildiraklarda harakatni uzatuvchi burovchi moment ta'sirida kontakt yuzasida sirpanish zonasining kengayishi va ishqalanish energiyasining ortishi yuz beradi. Yetaklanuvchi g'ildiraklarda esa bunday moment mavjud emas, shuning uchun sirpanish kichik, yeyilish esa sekin kechadi.




10-rasm. Yetakchi va yetaklanuvchi g'ildiraklarida shina protektori yeyilishining umumiy masofaga bog'liqlik grafigi




11-rasm. Avtomobil massasining shina yurish masofasiga bog'liqlik grafigi

Grafik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, to'la massadagi holatda shina yurish masofasi 48 242 km, shaylangan massada esa 60 783 km ni tashkil etgan. Demak, yuk ortishi natijasida shina resursining taxminan 20 % ga kamayishi kuzatiladi. Bu holat shina kontakt yuzasidagi normal bosimning ortishi va natijada ishqalanish kuchlari hamda deformatsiya energiyasining ko'payishi bilan izohlanadi. Massa ortgan sari shina yuzasidagi kontakt yuzaning shakli o'zgaradi va sirpanish zonasi kengayadi, bu esa mikrodarajadagi yeyilishni tezlashtiradi.



12-rasm. Ichki bosimning shina yurish masofasiga ta'siri grafigi




